TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 24-oktabr | 289-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 14 oktabrdagi 711-10-0-Q/24-sonli qarori haqida

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 14 oktabrdagi “Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-sentabrdagi 614-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 711-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yer maydonlaridan foydalanish jarayonida yer va shaharsozlik qonunchiligi o‘rtasidagi munosabatlarni ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman**:

1. Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 14 oktabrdagi 711-10-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-sentabrdagi 614-sonli qarori bilan:

kapital qurilish obyektlariga yer bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan va ularning belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan holda joyini o‘zgartirish mumkin bo‘lmaydigan binolar, inshootlar, shuningdek, qurilishi tugallanmagan obyektlar kirishi;

ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turi yer maydonidan foydalanish maqsadlarini yuritish uchun belgilangan asosiy faoliyat turini aks ettirishi;

bitta hududiy zonada joylashgan barcha yer maydonlari uchun asosiy foydalanish turiga qo‘shimcha sifatida ruxsat etilgan foydalanishning yordamchi
turi;

shartli ruxsat etilgan foydalanish turi asosiy faoliyat turi uchun ruxsatnoma olinganidan keyin belgilanadi, uni amalga oshirish shaharsozlik reglamentiga muvofiq muayyan shartlarning yuzaga kelishini talab qilishi;

yer maydoni chegaralarida joylashgan kapital qurilish obyektlaridan yer maydonining ruxsat etilgan foydalanish turiga va shaharsozlik reglamentida belgilangan yo‘l qo‘yiladigan parametrlariga muvofiq foydalanilishi;

ruxsat etilgan foydalanishning yordamchi turlari uchun foydalaniladigan yer maydonining maydoni ushbu hududiy zonada shaharsozlik reglamentida

belgilangan yer maydonidan foydalanishning yo‘l qo‘yiladigan parametrlaridan oshmasligi kerakligi;

bo‘lingan yoki qo‘shib yuborilgan yer maydonlarining ruxsat etilgan foydalanish turi yangi vujudga kelgan yer maydonlarining ruxsat etilgan foydalanish turi deb tan olinishi belgilanligi ijro uchun qabul qilinsin.

3. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-sentabrdagi 614-sonli qarori bilan 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

yer maydonlaridan ruxsat etilgan foydalanish turlari va kapital qurilish obyektlarining foydalanish maqsadi har bir hududiy zona uchun joylardagi tegishli tuman (shahar) hokimliklari tomonidan shaharsozlik reglamentlari talablariga muvofiq belgilanishi va Davlat shaharsozlik kadastri ma’lumotlarida aks ettirilishi;

yer maydonidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy yoki shartli ruxsat etilgan turi Kadastr va ko‘chmas mulkni ro‘yxatga olishning integratsiyalashgan axborot tizimiga bu haqidagi ma’lumotlar kiritilgan kundan boshlab belgilangan hisoblanishi;

yer maydonidan ruxsat etilgan foydalanishning yordamchi turlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar Kadastr va ko‘chmas mulkni ro‘yxatga olishning integratsiyalashgan axborot tizimiga kiritilmaydi va hududni funksional zonalashtirilishini belgilovchi shaharsozlik hujjatlari tasdiqlangan kundan boshlab belgilangan hisoblanishi;

yer maydonlaridan ruxsat etilgan foydalanishning bir turini bunday foydalanishning boshqa turiga texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga rioya qilingan holda shaharsozlik reglamentiga muvofiq o‘zgartiriladi;

tasdiqlangan shaharsozlikning zonalashtirish hujjatlari mavjud bo‘lmagan taqdirda, yer maydonlaridan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turlari tegishincha viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi huzuridagi hududiy arxitektura-shaharsozlik Kengashning qarorlariga asosan, o‘zlashtirilishi;

yer maydonlaridan ruxsat etilgan foydalanishning yordamchi turi ularning huquq egalari tomonidan shaharsozlik reglamentlarida nazarda tutilgan yordamchi faoliyat turlarini tanlash yo‘li bilan mustaqil ravishda o‘zgartirilishi;

kapital qurilish obyektining foydalanish maqsadi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda uning ixtisoslashishini o‘zgartirish yo‘li bilan o‘zgartirilishi;

yer maydonidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turi o‘zgartirilgan kundan e’tiboran uch oy muddatda yer maydoni chegaralarida joylashgan kapital qurilish obyektlarining ixtisosligi o‘zgartirilishi lozimligi;

ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turi belgilanmagan yer maydonlarini mulk huquqi asosida, doimiy foydalanishga va ijaraga berish (realizatsiya qilish) hamda ushbu yer maydonlari chegaralarida joylashgan

kapital qurilish obyektlarining ixtisosligini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-sentabrdagi 614-sonli qarori bilan:

Yer maydonlaridan ruxsat etilgan foydalanish turlari va kapital qurilish obyektlarining yagona klassifikatori (keyingi o‘rinlarda — Yagona klassifikator) 1-ilovaga muvofiq;

Ilgari hisobga olingan yer maydonlaridan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turlarini belgilash tartibi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

Yer maydonlaridan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turini belgilash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti 3-ilovaga muvofiq;

Yer maydonlaridan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turini o‘zgartirish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti 4-ilovaga muvofiq;

Yer maydonidan shartli ruxsat etilgan foydalanish turi uchun ruxsatnoma olishning ma’muriy reglamenti 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

5. Tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi Kadastr agentligi tuman filiali bilan birgalikda bir oy muddatda materiallari “Yerelektron” avtomatlashtirilgan axborot tizimida ko‘rib chiqish yoki vakolatli organlar va tashkilotlar bilan kelishish jarayonida bo‘lgan bo‘sh turgan yer maydonlari bo‘yicha ulardan foydalanishning ruxsat etilgan asosiy turlari belgilanishini ta’minlasin.

Bunda bo‘sh turgan maydonlaridan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turlarini belgilash qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi tomonidan:

yangi shakllanayotgan bo‘sh turgan yer maydonlari uchun — yer maydonlarini tanlash bo‘yicha takliflar tayyorlash jarayonida;

shakllangan bo‘sh turgan yer maydonlari uchun — ilgari hisobga olingan yer maydonlari uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Qishloq xo‘jaligi bo‘limi bir oy muddatda materiallari “E-ijara” axborot tizimida ko‘rib chiqish yoki vakolatli organlar va tashkilotlar bilan kelishish jarayonida bo‘lgan, bo‘sh turgan yer maydonlari bo‘yicha ulardan foydalanishning ruxsat etilgan asosiy turlari belgilanishini ta’minlasin.

Bunda bo‘sh turgan maydonlaridan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turlarini belgilash “O‘zdavyerloyiha” DILning hududiy bo‘linmasi tomonidan:

yangi shakllanayotgan bo‘sh turgan yer maydonlari uchun — qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlaridan samarali foydalanish, hududlarni ixtisoslashtirish, bo‘sh turgan, zaxiradagi va kelgusida zaxiraga olinadigan yer maydonlarini qishloq xo‘jaligi korxonasi yoki dehqon xo‘jaligi tashkil etish uchun ochiq elektron tanlovga chiqarish bo‘yicha loyihalarni tayyorlash jarayonida;

shakllangan bo‘sh turgan yer maydonlari uchun — ilgari hisobga olingan yer maydonlari uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

7. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy filiali va Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi “E-auksion” elektron savdo platformasida 2025-yil 1-yanvarga qadar realizatsiya qilinmagan va auksionda g‘olib aniqlanmagan yer maydonlarini (shu jumladan, ularda kapital qurilish obyektlari mavjud bo‘lgan) belgilangan tartibda ular uchun ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turlari belgilangan holda, “E-auksion” elektron savdo platformasida qo‘shimcha kelishuvlarsiz qayta savdoga chiqarilishini ta’minlashi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. Tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi, viloyat boshqarmasi bilan birgalikda 2025-yil 1-iyulga qadar shaharsozlikning zonalashtirish hujjatlari yer maydonlaridan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy, yordamchi va shartli turlari belgilanishini inobatga olgan holda, Yagona klassifikator bilan muvofiqlashtirilishini ta’minlasin.

9. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-sentabrdagi 614-sonli qarori 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kirishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinborasi S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**